

**PEDOFILIYA JINOYATCHILIGINING HOZIRGI KUNDA
O'ZBEKISTONDAGI HOLATI, UNING VUDGA KELISHIGA IMKON
BERUVCHI SABAB VA SHART-SHAROITLAR VA UNGA QARSHI
KURASHDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN CHORA-TADBIRLAR**

Abdumuminov Asadbek Aziz o'g'li

Ichki ishlar Vazirligi Akademiyasi 209-guruh kursanti

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada pedofiliya jinoyatchiligining tarixi, uning hozirgi kundagi ko'rinishlari, O'zbekistonda pedofiliya bilan bog'liq holatlarning qayd etilishi va bunga imkon beruvchi sabab va shart-sharoitlar hamda pedofiliyaga qarshi kurashning xalqaro va O'zbekiston tajribasi bilan bog'liq ma'lumotlar keltirilgan.

**СОВРЕМЕННОЕ ПОЛОЖЕНИЕ ПЕДОФИЛЬНОЙ ПРЕСТУПНОСТИ В
УЗБЕКИСТАНЕ, ПРИЧИНЫ И УСЛОВИЯ, ОБУСЛОВИВШИЕ ЕЕ
ВОЗНИКНОВЕНИЕ, И МЕРЫ, ПРИНИМАЕМЫЕ В ОБЛАСТИ
БОРЬБЫ С НЕЙ**

АННОТАЦИЯ:

В данной статье история преступления педофилии, его современные проявления, учет дел, связанных с педофилией в Узбекистане и причины и условия, которые сделали ее возможной, а также информация, касающаяся международного и узбекского опыта борьбы с педофилией дается.

**THE CURRENT SITUATION OF PEDOPHILIA CRIMINALITY IN
UZBEKISTAN, THE REASONS AND CONDITIONS THAT ENABLE IT TO
COME TO WOOD, AND THE MEASURES TO BE IMPLEMENTED IN THE
FIGHT AGAINST IT**

ANNOTATION

In this article, the history of the crime of pedophilia, its current manifestations, the recording of cases related to pedophilia in Uzbekistan and the reasons and conditions that made it possible, as well as information related to the international and Uzbek experience of the fight against pedophilia given.

Bugungi kunda jamiyatda globulashuv jarayoni avj olgan bir vaqtda jamiyat uchun ham ijobiy, ham salbiy holatlar yuzaga kelmoqda. Ushbu illatlarga albatta jinoyatni kiritsak hech yanglishmagan bo'lamiz. Hozirgi vaqtdagi kriminogen muhit

jiddiy o'zgarish davrida ketmoqda. Sodir etilayotgan jinoyatlar o'zining tajovuz obyekti, keltirayotgan zararli oqibatlari va jamiyat uchun xavfli jihatlari bilan o'tgan yillardagisiga nisbatan keskin farq qiladi. Xususan, ulardan biri nomusga tegish jinoyati.

Nomusga tegish-ayol jinsidagi shaxs bilan uning erkiga qarshi yoki erkidan tashqari zo'rlik ishlatib, qo'rqitib yoxud jabrlanuvchining o'jizligidan foydalanib, tabiiy usulda jinsiy aloqa qilish tushunilishi lozim¹. Ushbu jinoyatning jabrlanuvchisi faqat ayol kishi, nomusga tegishning subyekta esa ayolning xohishi, erkiga qarshi u bilan jinsiy aloqaga kirishgan erkak hisoblanadi. Hozirgi vaqtda ushbu jinoyatning jabrlanuvchisi faqat kata yoshdagi ayollar emas, balki yosh bolalar ham bo'lishi jamiyatni tahlikaga soladi.

Sababi yoshlar jamiyatning asosiy bo'g'ini, taraqqiyot kelajagi hisoblanadi. Fikrimizning yaqqol isboti sifatida 2020 yil 25 dekabrda ilk marotaba bo'lib o'tgan yoshlar forumida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev nutq so'zlab shunday fikrlarni bildirib o'tgan endi: «Men har gal yoshlarimiz bilan uchrashganimda sizlarning g'ayrat-shijoatingizdan kuch-quvvat olaman, ko'nglim tog'day ko'tariladi. Har biringiz jonajon Vatanimiz va xalqimizga sidqidildan xizmat qilish orzusi bilan yonib yashayotganingizni yaxshi bilaman. Sizlarni O'zbekistonning eng katta boyligi, bebaho xazinasini sifatida qadrlayman»².

Shunday ekan, jamiyatda olib borilayotgan islohotlar, amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar yosh avlodga xizmat qilishi kerak. Lekin bugungi globallashuv davrida bo'layotgan jinoyatlarning tajovuz obyekti yuqorida sanab o'tilganidek, yoshlarga, ya'ni voyaga yetmagan qiz bolalarga qaratilmoqda. Xususan, ulardan biri pedofiliyadir. **Pedofiliya**- kattalar yoki o'smirlar balog'atga yetmagan bolalarga nisbatan asosiy yoki eksklyuziv jinsiy moyillikni boshdan kechiruvchi [psixiatrik kasallikdir](#).³

Pedofiliya so'zi [yunoncha](#) „bola“ degan ma'noni anglatuvchi *país*, *paísos* (*país*, *payós*) va *philia* (*philia*), „do'stona sevgi“ yoki „do'stlik“ so'zlaridan kelib chiqqan¹. *Pedofiliya* atamasi 13 yoki undan kichik yoshdagi balog'atga yetmagan bolalarga nisbatan asosiy yoki eksklyuziv jinsiy qiziqishga ega bo'lgan shaxslar uchun qo'llaniladi. Pedofiliya bir nechta turlarga bo'linadi:

¹ O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining qarori, 29.10.2010 yildagi 13-son

² <https://www.gazeta.uz/oz/2020/12/25/forum/>

³ https://uz.wikipedia.org/wiki/Pedofiliya#cite_note-1

1. Infantofiliya-pedofiliyaning kichik turi bo'lib, u 5 yoshgacha bo'lgan bolalar (ayniqsa, [chaqaloqlar](#)) uchun jinsiy moyilliklar ta'rifi uchun ishlatiladi. Ushbu so'z, ba'zan, *nepiofiliya* deb ham ataladi ([grekcha](#): *νήπιος* (*népios*) „chaqaloq“ yoki „bola“ degan ma'noni anglatadi. Bu esa o'z navbatida „ne-“ va „gapirmaslik“ degan ma'noni anglatuvchi „epos“ so'zlaridan kelib chiqqan bo'lsa-da, akademik manbalarda bu atama kam qo'llaniladi.

2. Gebefiliya 11 yoshdan 14 yoshgacha bo'lgan balog'at yoshidagi o'smirlarga nisbatan asosiy yoki eksklyuziv jinsiy qiziqishga ega bo'lgan shaxslar sifatida aniqlanadi.

Pedofiliya birinchi marta 19-asr oxirida rasman tan olingan va nom berilgan. 1980-yillardan beri ushbu sohada katta miqdordagi tadqiqotlar olib boriladi. Ko'pincha erkaklarda hujjatlashtirilgan bo'lsa-da, kasallikni aniqlangan ayollar ham bor. Tadqiqotchilar mavjud hisob-kitoblarga ko'ra, ayol pedofillarning haqiqiy sonini kam miqdorda ifodalaydilar. Pedofiliya uchun hech qanday davo ishlab chiqilmagan, ammo bolalarga jinsiy zo'ravonlik qilish holatlarini kamaytiradigan davolash usullari mavjud. Pedofiliyaning aniq sabablari hali ham aniqlanmagan. Jinsiy aloqada bo'lgan bolalarda pedofiliya bo'yicha olib borilgan ba'zi tadqiqotlar uni turli nevrologik anomaliyalar va psixologik patologiyalar bilan bog'laydi. Qo'shma Shtatlarda, 1997-yilda Kanzaslik *Xendriks* ma'lum ruhiy kasalliklar, xususan, pedofiliya tashxisi qo'yilgan jinsiy jinoyat sifatida cheksiz jazolarga duchor bo'lganligi aytib o'tiladi. Pedofiliya balog'at yoshidan oldin yoki ushbu davrda paydo bo'ladi va vaqt o'tishi bilan barqarorlasha boradi. Ushbu sabablarga ko'ra, pedofiliya fenomenologik jihatdan jinsiy moyillikning buzilishi sifatida tavsiflangan. Biroq, bu kuzatishlar pedofiliyani ruhiy kasallik sifatida tasniflashni istisno etmaydi. Pedofiliya bo'yicha tadqiqotlar ko'pincha pedofil shaxs o'zini past baholashi, depressiya, tashvish va shaxsiyat muammolari kabi boshqa psixopatologiyalar bilan birga sodir bo'lishi haqida xabar beradi.

Pedofiliya orqali yuzaga keladigan salbiy oqibatlar:

Pedofiliya qurboni bo'lgan jabrlanuvchi qattiq psixik jarohat olib, hayotga bo'lgan qiziquvchanligi kamayib keladi, ba'zan o'z joniga qasd qilish holatlari kelib chiqishi mumkin;

Jabrlanuvchining sog'lig'iga jiddiy ziyon yetkazilib, keyinchalik farzand ko'rish qobiliyati yo'qolishi mumkin;

erta homila vujudga kelishi mumkin;

jabrlanuvchi o'z o'zini jamiyatdan uzib, hech kim bilan munosabatga kirishmasdan ruhiy kasallikka chalinishi mumkin;

ota-onalar qattiq tushkunlikka tushib qolib, pedofiliyaning qurboni “mening farzandim bo'lmaydimi?” degan qo'rquvda yashaydi;

jamiyatning kelajagi hisoblanmish yosh avlod xavf ostida qoladi va yurtning kelajagiga putur yetkaziladi va boshqalar.

Statistik ma'lumotlarning ko'rsatishicha pedofillar 97 % holatda qayta tuzalmaydi, har qanday jazo berilmasin u jinoyat sodir etishni istab turadi. Tibbiyot fanlari doktori, professor Zarifboy Ibodullayev o'zining bergan intervyusida pedofiliya haqida shunday fikr bildirib o'tgan⁴: «Yigirma nafar odam suitsid xayolida yurgan bo'lsa, ulardan bittasi shuni amalga oshiradi, deyiladi. Balki, O'zbekistonda 10 kishi pedofillik xayolida yurib, vaziyat topolmaganidan amalga oshirolmayotgandir. Demoqchimanki, har qanday vaziyatda profilaktika katta rol o'ynaydi. Agar qonun qabul qilsak, pedofiliya keskin kamayadi, bunaqa xayolda yurganlar ham fikridan qaytadi», — deya fikrini asoslaydi shifokor.

Shuningdek, Ibodullayev pedofillarning shaxsi ochiq matbuotda ko'rsatilishi kerak deb hisoblaydi:

«Ilgari moxov kasalligiga chalinganlar aholi yashaydigan joydan 250 km uzoqda yashagan. Pedofillarni ham izolyatsiya qilish kerak. Jamiyat ulardan hazar qilishi kerak, ularning jamiyat bilan birga bo'lishga haqqi yo'q. Agar hozir kastratsiya masalasini qonunchilikka kiritmasak, 5 yildan keyin baribir kiritishga majbur bo'lishadi. Chunki bunday narsalar kuchayib boraveradi. Qo'rqish, andisha qilish kerak emas, qonunni qabul qilish shart».

Yuqorida bildirib o'tilgan fikrlar albatta muhimdir. Buning isbotini bir qator davlatlarning jazo tizimida ko'rishimiz mumkin. Xususan, pedofiliya bilan bog'liq jinoyatni sodir etgan shaxslar Afrika davlatlarida yoqib yuboriladi, Saudiya Arabistonida boshi kesilib, televediniyada namoyish qilinadi, Sharq davlatlarida osiladi. Agarda jaao choralari kuchaytirilmasa, jamiyatning qonunga bo'lgan ishonchi pasayadi, oqibatda “samosud⁵” avjiga chiqib ketishi mumkin. Bundan tashqari kimyoviy kastratsiya jazosini qo'llash bo'yicha takliflar berilgan.

⁴ <https://kun.uz/uz/news/2023/03/07/kastratsiya-izolyatsiyalash-va-ochiq-reyestr-ozbekiston-qonunchiligida-pedofillarni-jazolash-ozgaradimi>

⁵ **Samosud, o'zicha sudlash** — huquqbuzarlik sodir etgan yoki huquqbuzarlik sodir etishda gumon qilingan shaxs haqida tegishli davlat organiga xabar qilmasdan, uni o'zboshimchalik bilan qonunga xilof ravishda jazolash.

Kimyoviy kastratsiya- bu pedofiliya jinoyatini sodir etgan erkakni bichib qo'yish, ya'ni jinsiy bezlarini jarrohlik operatsiyasi bilan olib tashlashdir. Ushbu usul ham juda keng tarqalgan. Xususan, AQSh, Buyuk Britaniya, Belgiya, Fransiya, Chexiya, Polsha, Qozog'iston davlatlarining jazo tizimida kimyoviy kastratsiya pedofiliya oqibatida jabrlanuvchi o'limi yuzaga keladigan bo'lsa, ushbu jazo chorasi qo'llanilishi belgilab qo'yilgan.

Bundan tashqari pedofillarning reystri ham yuritilish amaliyoti yo'lga qo'yilgan. Ya'ni pedofillarning reystri bu- pedofiliya bilan bog'liq jinoyatni sodir etgan shaxslarning qat'iy hisobini davlat tomonidan yuritilib borilishi va OAV larida profilaktik ogohlantiruv tariqasida e'lon qilib borishidir.

O'zbekiston Respublikasi ham o'zining pedofiliya sohasidagi muhim qator qonun qabul qildi. Xususan, 2023 yil 11 aprelda "XOTIN-QIZLAR VA BOLALAR HUQUQLARI, ERKINLIK LARI HAMDA QONUNIY MANFAATLARINI ISHONCHLI HIMOYA QILISH TIZIMI YANADA TAKOMILLASHTIRILISHI MUNOSABATI BILAN O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING AYRIM QONUN HUJJATLARIGA O'ZGARTISH VA QO'SHIMCHALAR KIRITISH TO'G'RISIDA" gi qonuni qabul qilindi.

«Men ushbu g'alaba bilan faxrlanaman va unda ishtirok etgan barchadan minnatdorman! Oldinda ushbu moddalar ishlashi va jamiyat o'zgarishi uchun qiyin va uzoq yo'l turibdi.

Men barcha davlat organlari, fuqarolik jamiyatlari, faollar va media — barcha-barchani bu jarayonga qo'shib, zo'ravonlikka qarshi kurashning yagona mexanizmiga aylanishga chaqiraman. Zo'ravonlik — jinoyat. Zo'ravonlik — bizning madaniyatimiz emas!⁶», — [dedi](#) Saida Mirziyoyeva.

Eslatib o'tamiz, bu qonun ustida bir guruh rasmiylar va jamoatchilik faollari ish olib bordi.

Yangi qonunda ayolni abort qilishga majburlash, nomusga tegish, jinsiy ehtiyojni g'ayritabiiy usulda qondirish, jinsiy aloqaga majburlash, 16 yoshga to'lmagan shaxs bilan jinsiy aloqa qilish, 16 yoshga to'lmagan shaxsga nisbatan uyatsiz-buzuq harakatlar qilish, pornografiya tayyorlash va tarqatish kabi jinoyatlar uchun jazolarni og'irlashtirish ko'zda tutilgan.

Ushbu qonunga ko'ra jinsiy zo'ravonlik sodir etgan shaxslar muddatidan ilgari jazodan shartli ozod qilinmaydi, ularning jazosi yengilrog'i bilan almashtirilmaydi.

Bundan tashqari, O‘zbekistonda ham pedofillarning reyestri yuritiladigan bo‘ldi. Shuningdek, bu qonun bilan oiladagi zo‘ravonlik jinoyat deb e‘lon qilinyapti.

Umid qilamizki, ushbu qonunning qabul qilinishi pedofiliyaning to‘liq barham berishiga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. <https://www.gazeta.uz/oz/2020/12/25/forum/>
2. https://uz.wikipedia.org/wiki/Pedofiliya#cite_note-1
3. <https://kun.uz/uz/news/2023/03/07/kastratsiya-izolyatsiyalash-va-ochiq-reyestr-ozbekiston-qonunchiligida-pedofillarni-jazolash-ozgaradimi>
4. <https://xabar.uz/uz/jamiyat/prezident-muhim-qonun-imzoladi>
5. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining qarori, 29.10.2010 yildagi 13-son